

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH SOHASINI
RIVOJLANTIRISH YO'LIDA OLIB BORILAYOTGAN KENG KO'LAMLI
ISLOHOTLAR**

Uzoqov Diyorbek Ulug'bek o'g'li

Qo'qon universiteti talabasi

uzoqovdiyorbek82@gmail.com

Mahmudov Mo'minjon Mansurjon o'g'li

Qo'qon universiteti talabasi

mahmudovmominjon027@gmail.com

Umarov Ayubxon Davronjon o'g'li

Qo'qon universiteti talabasi

umarovayubxon64@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda mamlakatimizda qurilish sohasini rivojlanirishga qaratilgan bir qator qaror, farmonlar hamda ularning ijrolari, qurilish ishlari bo'yicha viloyatlar kesimida olib borilgan statistik ma'lumotlar va ularning tahlili bayon qilingan hamda bu ma'lumotlar asnosida umumiy xulosalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qurilish, rivojlanirish, qaror, farmon, statistika.

Аннотация: В диссертации описаны ряд решений, постановлений, направленных на развитие строительной отрасли в нашей стране и их реализация, статистические данные о строительных работах в регионе и их анализ, а также даны общие выводы на основе этих данных.

Ключевые слова: строительство, развитие, решение, указ, статистика.

Annotation: In this thesis, a number of decisions, decrees aimed at the development of the construction industry in our country and their implementation, statistical data on construction works in the region and their analysis are described, and general conclusions are given based on this data.

Key words: construction, development, decision, decree, statistics.

Qurilish sohasi – milliy iqtisodiyotimizning asosiy yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizning qurilish sohasida keskin o‘sish yuzaga keldi. Qurilish sohasini rivojlantirish aholi sonining oshishi, aholi farovonligi va xarid qobiliyatining yaxshilanishi kabi omillar bilan bevosita bog‘liq. O‘z navbatida, qurilish sohasining rivojlanishi qo‘sishimcha ish o‘rinlari yaratilishiga va infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi. Ko‘plab rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlarning amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, qurilish sohasining o‘sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini o‘sishini, shuningdek ijtimoiy sohani ham rivojlanishini ta’minlab beradi. Qurilish sohasiga bo‘lgan talabning oshishi, ushbu sohada ishlab chiqarish hajmining ortishi bo‘ladi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi esa, qurilish materiallari sanoati, energiya resurslari va boshqa qazib olish sohalaridagi oraliq tovarlarga qo‘sishimcha talabni tug‘diradi. Shu sabli mamlakatimizda qurilish sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta’minalash hamda bu sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar natijasida bunyodkorlik ko‘lamlari tobora kengayib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil 1-mayida PQ-2936-son) qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tarkibiy tuzilmasi tubdan o‘zgartirildi va yangi vazifalar qo‘yildi. Ammo yillar davomida qo‘mitada yo‘l qo‘yilgan sustkashliklar va xatoliklar tufayli qo‘mita ishonchni oqlay olmadi. Natijada mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son) li farmoni qabul qilindi. Bu farmonga muvofiq Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Qurilish vazirligi tashkil etildi. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari ishlab chiqildi, qurilish sohasiga axborot texnologiyalari

joriy qilindi va qurilish sohasida axborot-texnologiyalarini rivojlantirish Markazi tashkil etildi. Aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash dasturlari bo'yicha, tadbirkorlar tomonidan bank krediti va o'z mablag'lari hisobidan olib borilayotgan qurilishi ishlari jadal tus olgan.

O'zbekiston Respublikasidagi Qurilish ishlari viloyatlar kesimida

(o'sish sur'ati, % da)

Hududlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	o'rtacha
Qoraqalpog'iston Respublikasi	119,9	119,3	105,3	89,4	112,3	125,8	128,0	107,0	103,8	112,3
Andijon	113,0	118,3	107,1	106,4	103,1	121,8	99,3	109,5	108,7	109,7
Buxoro	116,8	104,7	116,2	98,2	106,4	119,8	114,9	117,0	111,8	111,8
Jizzax	131,3	111,2	105,6	109,7	99,0	129,0	146,9	101,5	116,2	116,7
Qashqadaryo	105,1	116,7	124,9	114,4	99,9	110,9	103,2	98,3	117,6	110,1
Navoiy	109,9	112,4	102,2	100,3	105,4	147,5	125,6	94,6	116,8	112,7
Namangan	117,6	106,2	102,6	108,6	102,4	123,0	140,8	118,3	109,1	114,3
Samarqand	119,2	108,7	119,5	100,2	95,3	119,6	126,2	111,7	117,8	113,1
Surxondaryo	123,6	107,7	118,9	106,7	107,3	129,7	121,2	109,0	112,9	115,2
Sirdaryo	113,8	108,5	117,1	100,2	99,8	149,0	158,2	110,2	109,9	118,5
Toshkent	114,0	104,0	109,4	100,2	100,3	131,1	155,8	107,8	115,3	115,3
Farg'ona	115,7	109,1	109,0	102,8	95,4	120,4	118,8	115,3	115,3	111,3
Xorazm	126,4	103,2	116,0	101,8	108,2	114,0	119,3	97,4	130,9	113,0
Toshkent sh.	109,8	115,9	107,3	102,8	120,5	136,5	135,5	106,6	118,3	117,0

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki O‘zbekiston Respublikasidagi qurilish ishlari, 2013-2021yillar oralig‘ida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Farg’ona va Xorazm viloyatlarida o‘rtacha 110-113 foizga o‘sgan, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida esa o‘rtacha 114-118 foizga o‘sgan. Quvonarli tomonlardan biri, butun dunyo mamlakatlarini juda ko‘plab sohalarini iqtisodiy tang ahvolga olib kelgan Covid-19 pandemiyasi yuqoridagi qaror va farmonlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizni aynan qurilish sohasiga juda yuqori darajada salbiy ta’sir ko‘rsata olmagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki,O‘zbekiston Respublikasidagi qurilish sanoati yil sayin ortib bormoqda. Bu sohada olib borilgan islohotlar natijasi so‘ngi 5 yil mobaynida yaqqol namoyon bo‘ldi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Covid-19 pandemiyasi o‘sha davrda va undan keyingi yillarda ham qurilish sohasini rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan. Bu natijalar asosida yana shunday xulosaga kelish mumkunki, mamlakatimiz rahbari va boshqa ijrochi organlarni qurilish sohasini rivojlantirishga doir sayi harakatlarini yuksalishi, qo‘srimcha qaror va farmonlarining ishlab chiqilishi, mamlakatimiz bundan keyingi davrda aynan qurilish sohasi bo‘yich yanada yuksak natijalarga erishishligiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Xolmirzayev, “O‘zbekiston qurilish sohasida tub burilishlarni amalga oshirmoqda” .“Yangi O‘zbekiston” gazetasi.
2. A.A.Yusupov, S.A. Abdulhamidov “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI QURILISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI (hududlar kesimida)”.
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>
4. <https://lex.uz/uz/docs/-4523181>